ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 2

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 2

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEGIM MILLIY MATOLARIDAN TAYYORLANGAN O‘ZBEK LIBOSLARIDA USLUBLAR ARALASHMASI

Orakbayeva Muslima Ibrayim qizi
Qarshi davlat universiteti talabasi
E-mail: orakbaevamuslima@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning kiyimlari ham dunyoning boshqa mintaqalaridagi qadimgi kishilar kiyimlari kabi tabiiy iqlim, turmush sharoitlari va urug‘-qabila an’analari asosida shakllangan. Bugungi kunda zamonaviy kiyimlarni ipak matosiz tasavvur qilish qiyin.Tabiiy ipakdan tayyorlangan barcha mahsulotlar, dunyo bo‘yicha eng raqobatbardosh mahsulotlardan hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida yashaydigan xalqlarning kiyim-kechaklari uzluksiz o‘zgarishi va rivojlanishi, turli uslublarda tayyorlanishi faqat shu hududning ijtimoiy-siyosiy va etnik tarixi bilan bog‘liq bo‘lmay, balki butun Markaziy Osiyo tarixi va ijtimoiy hayoti bilan ham bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: Uslub, milliy mato, o‘zbek liboslari, uslublar aralashmasi, Atlas, ipak, to‘quvchilik, Moda, klassik uslub, san’at, kiyim, stilist, zamonaviy moda, badiiy madaniyati, estetika, ranglar, davr, amaliyot,rivojlanish darajasi, zamonaviy kiyimlar, turli xil uslublar.

Аннотация. Одежда наших древнейших предков, живших в Узбекистане, как и одежда древних народов других регионов мира, формировалась на основе природного климата, условий жизни и племенных традиций. Сегодня трудно представить современную одежду без шелковой ткани. Все изделия из натурального шелка входят в число самых конкурентоспособных товаров в мире. Непрерывные изменения и развитие одежды народов, проживающих в нашей стране, ее изготовление в различных стилях, связаны не только с социально-политической и этнической историей этого региона, но и с историей и общественной жизнью всей Центральной Азии.

Ключевые слова: стиль, национальная ткань, узбекская одежда, смешение стилей, Атлас, шелк, ткачество, мода, классический стиль, искусство, одежда, стилист, современная мода, художественная культура, эстетика, цвета, эпоха, практика, уровень развития, современная одежда, различные стили.

Abstract. The clothes of our most ancient ancestors who lived in Uzbekistan, like the clothes of ancient people in other regions of the world, were formed on the basis of natural climate, living conditions and tribal traditions. Today, it is difficult to imagine modern clothes without silk fabric. All products made of natural silk are among the most competitive products in the world. The continuous change and development of the clothes of the peoples living in our country, their

manufacture in various styles, are connected not only with the socio-political and ethnic history of this region, but also with the history and social life of all of Central Asia.

Keywords: Style, national fabric, Uzbek clothing, mixture of styles, Atlas, silk, weaving, Fashion, classical style, art, clothing, stylist, modern fashion, artistic culture, aesthetics, colors, era, practice, level of development, modern clothing, various styles.

KIRISH.

Avvalo, nima uchun aynan shu mavzuni tanlaganim haqida qisqacha to‘xtalmoqchiman. Yana savol tug‘iladi, mavzuni nimasi xato, nimasi noto‘g‘ri, yoki sababi nimada? Sababi shuki, men Qoraqalpoq qiziman va men aynan o‘zbek milliy liboslari haqida maqola yozayotganimdan juda xursandman. O‘zimni mutaxassisligimdan kelib chiqqan holda shuni ayta olamanki, aynan O‘zbek milliy liboslari, ularning kelib chiqish tarixi va ulardagi uslublar aralashmasi hech bir millat vakillarini e’tiborini tortmasdan qolmaydi shu qatorda meni ham. Shunday ekan, Universitetda o‘qiganlarim, o‘rganganlarim, amaliyotda ko‘rganlarim va ustozim,Yengil-sanoat mutaxassisi Ma’mura Suvonovaning o‘rgatganlari bo‘yicha bugun shu mavzuga qo‘l urdim.

Uslub nima? Avvalo shu so‘zga ta’rif bersam, uslub – davrning badiiy tili, davrning badiiy ifodasi. Unda muayyan tarixiy davrning estetik ideali namoyon bo‘ladi. Uslub barcha san’at turlariga o‘zgacha ta’sir etadi, Uslubda har bir davrni dunyoqarashlari va g‘oyalari aks etiladi. Har bir uslub rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan iborat: paydo bo‘lishi, avjga yetishi, inqirozga uchrashi. Shuni e’tiborga olish lozimki, har bir davrda bir necha uslublar birgalikda mavjud bo‘lgan. Oldin bo‘lgan, ayni shu vaqtda hukmronlik qilgan va kelajak uslubning elementlari. Har bir mamlakatda badiiy madaniyati rivojlanish darajasi, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, boshqa mamlakatlar madaniyati bilan aloqaligi bilan bog‘liq badiiy uslublari bor. Bizning o‘zbek xalqimiz liboslarida ham.

Tarixiy davrlar o‘tishi bilan uslublar o‘zgarib, o‘tmishda qoldi: jamoa va insonni turmush sur’ati tezlashishi, informatsion jarayonlarni rivojlanishi, yangi texnologiyalar va ommabop bozorni ta’siri, yagona uslubga emas, balki ko‘p uslubiy shakllar va plastik siymolarni mavjud bo‘lishiga olib keldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Uslublar haqida gapirar ekanman, bugungi zamonaviy modada menga, eng yoqadigan uslub bu *KLASSIK* uslubdir. Chunki men ta’lim olayotgan Qarshi Davlat Universitetimizda talaba-yoshlarimizni kiyinish uslublari aynan klassik uslubda va bu hammamizga birdek yoqadi. Klassik uslub oddiy va ishbilarmon uslub bo‘lib, modaga deyarli sig‘inmaydigan, deyarli o‘zgarmaydigan, hamma talaba-yoshlarga, professor-o‘qituvchilarga ham yoqadigan elegant uslub. Klassik uslub – bu ko‘zga

ISSN 3030-3907

tashlanmaydigan juda oddiy siymo, e'tiborni o'ziga sifati bilan tortadi. Bir so'z bilan aytganda modadan qolmaydigan, modasi o'zgarmaydigan uslubdir. Aynan shu uslubda kiyinishda ranglarga alohida e'tibor beraman, chunki, to'q rangli klassik uslubdagi liboslarni ya'ni ko'zga tez tashlanadigan ranglardan qochib, ko'zni charchatmaydigan va eng muhimi o'zim uchun qulay bo'lgan kiyimlarni kiyishga harakat qilaman. Bu esa sifatli ta'lim olish jarayonlarida ijobiy natijalarga erishishimda yordam beradi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar kuchaydi. Xorijdan kelgan mahsulotlar mahalliy mahsulotlarga raqobatdosh bo'lgani bois, buyumlar dizayniga, kiyimlar uslubiga katta e'tibor beriladigan bo'ldi. Kiyim iste'mol va ommabop chiqariladigan buyum bo'lgani bois, kiyim dizayneri asosan sanoatga oid kolleksiyalarni yaratadi. Bunday mutaxassislarni kiyim dizayneri yoki "stilist" deb atashadi. Aynan dizaynerlarimiz, bugungi yoshlarimiz orasidagi zamonaviy modaga ko'proq e'tibor bergan holda, liboslarimizni konstruktiv yechimini, matosini va siymosini belgilaydigan va eng muhimi insonni o'ziga xos estetik didini ifodalaydigan liboslar yaratishlarini bugungi kunning muhim shartlaridan biri deb hisoblayman.

Zamonaviy modaning juda tez va jadal rivojlanib borayotganini hatto kundalik turmushimizda ham ko'rishimiz mumkin. Moda taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy hodisalari bilan bog'liqligini esa har kun, har soniyada kuzatamiz. Modani darhol o'zgarishlariga ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar, yirik tarixiy o'zgarishlar, san'at, fan va texnikadagi tub o'zgarishlar sabab bo'ladi. Jamoaning e'tiborini o'ziga tortadigan barcha siyosiy hodisalar modada yangi standartlar va namunalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro aloqalarni va ommaviy axborot vositalarni rivojlanishi, xalqaro bozorni shakllanishi ham modani rivojlanishiga asos yaratadi. Dizayn olamida moda – shunday uslubga aylandiki, radio, televideniye, global kompyuter tarmog'i bu jarayonga o'z hissasini qo'shdi. Ular yordamida yer yuzida yangi moda to'g'risida ma'lumot tez vaqtda ma'lum bo'ladigan bo'ldi.

Aynan biz bo'lajak, Yengil sanoat mutaxassislari uchun moda olamidagi o'zgarishlar yoki yangiliklar juda muhim ahamiyatga ega. Modaning har bir namunasi uni muxlislariga muayyan maqsadga erishishga, intilishiga, zamonaviy ko'rinib turishiga yoki ommalar orasida ajralib turishiga, atrofdagi insonlarga o'zi to'g'risida ma'lum ma'lumot berishiga imkon beradi. Bu holat ayniqsa xotin-qizlar orasida ma'lum va mashhurdir. Ayollar liboslarida modaning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunning modasi haqida gapiradigan bo'lsak, ayollar doimo moda olamida yetakchidir. Ular har soat, har soniyada moda bilan birga harakatda. Bugungi kunning modasini men, O'zbek milliy matolaridan tikilgan, milliy liboslarida ko'ra olaman.

ISSN 3030-3907

Xo‘sh, milliy matolarimizdan tayyorlangan milliy uslubdagi liboslarimiz qanchalik chiroyli va bejirim? Milliy matolarning o‘rni nimada? Qisqacha, milliy matolarga to‘xtalsam, Misol, qilib ***ATLAS*** matosini olsak.

Qadim tarixdan ma’lumki, yurtimizda chiroyi bo‘yicha beqiyos bo‘lgan yuqori sifatli matolardan ipak tolali matolar ishlab chiqarilgan. Bu matolar ilk o‘rta asrlardan boshlab butun sharqda, Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan barcha mamlakatlarga savdogarlar tomonidan olib borilgan va shuhrat qozongan. Buxoro va Samarqandda ishlab chiqilgan matolarning shuhrati haqida X-asr tarixchilari – Narshaxiy, Maqsudiy va boshqa muarrixlarning ma’lumotiga ko‘ra, mahalliy matolarimiz Bog‘dod, Xuroson, Suriya, Vizantiya, Misr mamlakatlarida xaridorgir bo‘lgan. Mato ishlab chiqarish hunarmandchilikka asoslangan xalq hayoti, uning tarixiy taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan. XIX asrning o‘rtalarida Buxoro, Marg‘ilon, Namangan, Samarqand, Shahrisabz, Xo‘jandda yuqori sifatli matolarning rang-barang turlari ishlab chiqarildi.

Atlas-deganda ko‘z oldimizda kamalak misoli, turli xil ranglarda, yal-yal yonib, jilolanib, ko‘zni qamashtirib, nigohlarni o‘ziga tortuvchi, bir lahzada rom etuvchi mato ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Aslida, bu matoga yuksak baho berishimiz va yuqorida berilgan ta’riflarimiz ham juda kam deb o‘ylayman. Chunki, dunyo mamlakatlarini hech birida bunday ATLAS matosi bo‘lmagan. Faqat bizning serquyosh O‘zbekistonda, Qo‘qon xoni Xudoyorxon tomonidan ilk bor to‘qilgan matodir.



Marg‘ilon atlasining nomi va turlari yetti iqlimga ma’lum va mashhur bo‘lib ketdi. Shahar “Ipak shahri” deb nom oldi. Avvalo, shahar xalqining azaliy mashg‘uloti bo‘lgan atlas to‘qish tarixiga to‘xtalsak, ma’lumki, ipakchilik Marg‘ilon shahrida qadimdan rivojlangan. Bu to‘g‘risida tarixchilarimizdan biri shunday deb yozib qoldirgan: “Marg‘ilonda to‘qilgan bir darparda uchun Buxoroning butun yer xirojini bersa arziydi”. Haqiqatdan ham ipakchilarimiz o‘z

ISSN 3030-3907

matolarini qadimdan dunyo bo‘ylab namoyish etganlar. Ipakdan tayyorlangan tayyor mahsulotning eng jozibali,eng maftunkor matosi bu –atlasdir.

Bugungi kunda zamonaviy kiyimlarni ipak matosiz tasavvur qilish qiyin. Adras va atlas matolaridan tikilgan kiyimlarni tantanali marosimlarda, nikoh to‘ylarida, milliy bayramlarda va hatto harbiy yurishlarda ham kiyilgan. Hatto Iskandar Zulqaynarning harbiy askarlari jasurlik va jasorat belgisi sifatida moviy rang ipakdan tikilgan ustki kiyimlarda yurishgan.

Milliy liboslarimiz milliy madaniyatimizning bir bo‘lagi ekanligini bugungi kunda ko‘pchilik tushunib yetyapti. Shunday ekan, biz har oy haftaning juma kunida Qarshi Davlat Universitetida milliy liboslarimizni zamonaviy uslublarda, milliy matolarimizdan foydalangan holda tikib, tayyorlab, “Milliy liboslar ko‘rgazmalarini” o‘tkazish doimiy an’anaga aylangan. Aynan ana shu milliy kiyimlarimiz orqali ham, an’ana va qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmatimizni namoyon etamiz. Hatto shaxsan O‘zim ham Qoraqalpoq milliy liboslari va O‘zbek milliy liboslari ko‘rgazmasini tashkillashtirib, undagi uslublar aralashmasiga alohida urg‘u berdim. Ko‘rgazmam to‘g‘risida ko‘p va xo‘p gapirishim mumkin, ammo buni quyidagi bittagina maqolamda ko‘rsatib, yoritib bera olmayman. Keyingi maqolalarimda kengroo qilib yozib qoldirmoqchiman. Bu ko‘rgazmadan asosiy maqsadimiz, yoshlarimizni qadriyatlarimizni ulug‘lashga, ularni asrab-avaylashga, milliy matolarimizga bo‘lgan hurmatlarini yanada yuksaltirishga qaratilgandir. Ushbu ko‘rgazmam hammaga birdek manzur bo‘ldi va bu menga faxr tuyg‘usini yana va yana uyg‘otdi. Talabalarimizga milliy matomiz, milliy uslubda tikilgan milliy liboslarimiz millatimiz ko‘zgusi ekanligini keng targ‘ib qilish oldimda turgan muhim vazifalarimdan biri ekanligini o‘zimga maqsad qildim.

Qarshi davlat universiteti talabasi, Yengil-sanoat mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan fakultetim talabasi sifatida shuni baralla ayta olamanki, o‘zining uslubiga ega O‘zbek milliy liboslari butun dunyoga taralgan va bu bilan biz faxrlanamiz,albatta.

ISSN 3030-3907



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xasanboyeva G.K. Libos dizayni. Ma’ruza matni -T.: TTESI, 2011.
2. X.X.Kamilova,N.A.Isaxojayeva, K.R.Fuzailova “Kostyum kreativ grafikasi”2017.
3. Xasanboyeva G.K. , Krimova O.I. “Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash” T. “O‘qituvchi”, 1990. TTESI.
4. Xasanboyeva G.K. “Kompozitsiya asoslari” Ma’ruza matni.